

AQShning Xalqaro diniy erkinlik bo'yicha komissiyasi (USCIRF) Davlat Departamentidan alohida va ayri tashkilotdir. USCIRF-ni AQSH Kongressi tashkil qilgan bo'lib, u AQSh hukumatining dunyo bo'ylab diniy erkinlik masalalarini kuzatadigan va prezident, davlat kotibi va Kongressga siyosiy tavsiyalar beradigan mustaqil va ikki-partiyali maslahat idorasi hisoblanadi. USCIRF-ning bu tavsiyalarini bizning rasmiy mandatimiz va Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi va boshqa xalqaro hujjalarga asoslanadi. "2017-qilgi yillik hisobot" joylarda gi huquqbazarliklarni hujjalashtirish va AQSh hukumatiga mustaqil siyosiy tavsiyalar berish masalasida maxsus vakillar va professional xodimlar amalga oshirgan bir yillik ishning kulminatsiyasidir. "2017-qilgi yillik hisobot" 2016 yil 1 yanvardan 2017-yil fevralgacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi, ammo ba'zi hollarda bu muddatdan keyin sodir bo'lgan muhim voqealar ham eslab o'tiladi. USCIRF haqida koproq ma'lumot olish uchun [bu](#) veb-sahifaga kiring yoki USCIRFga +1-202-786-0611 raqam bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri murojaat qiling.

### O'zbekiston

#### Muhim xulosalar:

O'zbekiston hukumati taxminan 13500 diniy va siyosiy mahbuslarni qamoqda ushlab din yoki e'tiqod erkinligini buzishda davom etmoqda. 2016 yil Aprel oyida jinoiy va administrativ kodeks larning din yoki e'tiqod erkinligini cheklovchi qismlari turli qoidabuzarliklar uchun bo'lgan jazolarni oshirish maqsadida o'zgartirildi. Hukumat rasman belgilangan me'yolranga muvofiq ravishda harakat qilmagan yoki davlat ekstremistik deb da'vo qilgan insonlarni qamashda davom etadi. Terrorizmda guman qilinish O'zbek mehnat migrantlari va ularning oila a'zolarini ta'qib qilishni oqlash uchun ishlatalmoqda, shu paytda Qozog'iston va Rossiya fuqarolari chegarada diniy materiallarga egalik qilgani uchun qamoqqa olinmoqda. Protestant mazhabи a'zolari uylariga reyd o'tkazish, diniy matnlarni olib qo'yish va jarima solish orqali davomiy ravishda ta'qib qilinadi. Ushbu diniy erkinlikning tizimli, ashaddiy va davomli huquqbazarliklarga asoslanib, USCIRF 2016 yilda 1998 Xalqaro diniy erkinlik aktiga (IRFA) ko'ra, O'zbekistonni yana bir bor "alohida tashvishli mamlakat" yoki ATUM (CPC) deb belgilashni tavsiya qiladi. Davlat departamenti O'zbekistonni 2006-yildan beri va so'nggi marta 2016-yil oktabr oyida shunday deb belgilangan bo'lsa-da, 2006-yildan buyon bunday belgilanish natijasida biror jazo chorasi ko'rishdan noma'lum vaqtga voz kechib kelmoqda.

#### AQSh Hukumatiga Tavsiyalar

- O'zbekistonni IRFA ostida ATUM (CPC) sifatida e'tirof etishni davom etish;
- 2009-yil yanvaridan beri ATUM deb belgilanish bilan bog'liq bo'lgan har qanday avvalgi voz kechishlarni bekor qilish va IRFA-ning 405 (c) bandiga ko'ra, O'zbekiston hukumati bilan ushbu mamlakatni ATUM ro'yxatidan chiqarish uchun amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlar masalasida majburiy shartnoma imzolashni tashkil etish ustida ishlash; agar muzokaralar muvaffaqiyatsiz bo'lsa yoki O'zbekiston shartnomadagi majburiyatlarini bajarmasa, IRFA-da belgilangan sanksiyalarni qo'llash;

- O'zbekiston hukumati diniy erkinlik sharoitini yaxshilash, inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarga rioya qilish, jumladan, 1998-yilgi din haqidagi qonunni isloh qilish va 2005-yildagi Andijon voqealari va musulmon rahbar Akram Yuldashevning 2010 yildagi qamoqdagi o'limi masalarida xalqaro tergovga ruxsat berish bo'yicha maxsus tadbirlarni amalga oshirishni, gumanitar yordam va inson huquqlari dasturlaridan tashqari AQShning yordam berishi uchun shart sifatida qo'yish;
- Kleptocracy Asset Recovery Tashabbusi dasturi doirasida AQSh tomonidan musodara qilingan va korruksiyaga aloqador bo'lgan mablag'larning O'zbekiston davlatiga qaytarilishining sharti sifatida O'zbekiston davlati din va vijdon erkinligi holatini yahshilash va halqaro inson huquqlari talablariga javob berishini qo'yish;
- Inson huquqlarini poymol qilishda, jumladan din va iymon erkinligining o'gir buzilishlarida qatnashgan yoki javobgar bo'lgan deb aniqlangan mansabdar shaxslar va agentliklarga qarshi mo'ljalli dasturlarni ishlatalish, masalan AQSh G'aznachilik Departamentiining Xorijiy Aktivlar Ustidan Nazorat Boshqarmasi (OFAC) tomonidan tayyorlanadigan "Maxsus belgilangan fuqarolar" ro'yxati, IRFA 604(a) bo'limi va Global Magnitskiy Inson Huquqlari Mas'uliyat qonuni ostida viza so'rovlарini rad etish va Global Magnitskiy Qonuni ostida mablag'larni musodara qilish;
- Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo'yicha ke ngashini O'zbekistondagi inson huquqlari bilan bog'liq vaziyatni tahlil etishga da'vat etish, shuningdek, EXHT kabi boshqa ko'p tomonlama tuzilmalarda masalalarni ko'tarish, O'zbekistonni din yoki e'tiqod erkinligi, sud idoralarining mustaqilligi va qiyonoqlar bo'yicha BMT maxsus ma'ruzachilarining safarlariga rozilik berishga undash, safarning aniq kunlarini belgilash va bunday safar uchun to'liq va zarur shart-sharoitlarni ta'minlash;
- AQShning diniy erkinlik va tegishli inson huquqlariga munosabati, jumladan, diniy mahbuslarni ozod qilish haqidagi chaqiriqlari, AQShning umumiy bayonotlari va O'zbekiston rasmiyлари bilan shaxsiy uchrashuvlarda ham aks ettilishini ta'minlash uchun AQSh bayonotlari va harakatlari agentliklar orasida muvofiqlashtirilishiga erishish;
- AQSh elchixonasi inson huquqlari faollari hamda diniy peshvolar bilan tegishli aloqalarni saqlab qolishini ta'minlash, jumladan elchi darajasida;
- Tinch diniy faoliyati yoki diniy tegishliligi uchun qamoqqa olingan insonlarning tezkor ravishda ozod qilinishi uchun eng baland darajada bosim o'tkazish va har bir mahbus o'zining oilasi, inson huquqlari kuzatuvchilarini va advokatlar bilan ko'proq ko'rishishi, tegishli tibbiy yordamga ko'proq ega bo'lishini ta'minlash uchun O'zbekiston hukumatiga bosim o'tkazish;
- Radio Ozodlik va "Amerika Ovozi" o'zbek xizmatining AQSh tomonidan davomiy mablag' bilan ta'minlanishiga kafolat berish;
- "Qizil hatlar" deb nomlangan halqaro hibsga olish va ekstraditsiya so'rovlарining diniy va siyosiy dissidentlarni ta'qib qilish maqsadida noto'g'ri ishlatalishi haqidagi shikoyatlarni INTERPOL tomonidan effektiv ravishda ko'rib chiqilishini ta'minlash.

**Kelib chiqishi:** Taxminan 28,7 million kishi istiqomat qiladigan O’zbekiston, Markaziy Osiyodagi sobiq Sovet respublikalari orasida aholisi eng ko’p davlat hisoblanadi. Aholining taxminan 93 foizi musulmon bo’lib, asosan sunniy yo’nalishining Hanafiy mazhabiga mansub, va bir foiz shialar asosan Buxoro va Samarqandda yashaydi. Aholining taxminan to’rt foizi rus pravoslavlardir. Qolgan uch foiz aholi esa Rim katoliklari, koreys millatiga mansub xristianlar, baptistlar, lyuteranlar, adventistlar, Elliginchi kun xristianlari, Iyegova guvohlari, buddaviylar, bahoiylar, krishnachilar, shuningdek, ateistlardan iborat. Taxminan 6000 nafar ashkenazi va 2000 nafar Buxoro yahudiysi Toshkent va boshqa shaharlarda istiqomat qiladi.

O’zbekistonning 1998-yili qabul qilingan “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar to’g’risida”gi qonuni barcha diniy guruqlar huquqlarini keskin cheklaydi va aksariyati musulmon hamjamiyatning diniy faoliyati ustidan hukumat nazoratini osonlashtiradi. Qonun ro’yxatdan o’tmagan diniy faoliyatni jinoyat deb hisoblaydi; diniy nashrlarning mazmuni, ularni ishlab chiqarish va tarqatish uchun rasmiy ruxsatni talab qiladi; voyaga yetmaganlarning diniy tashkilotlarga a’zo bo’lishni taqiqlaydi va jamoat joylarda diniy kiyim kiyishga faqat din peshvolariga ruxsat beradi, hamda prozelitizm va boshqa turdag'i missionerlik faoliyatini taqiqlaydi. Ko’pgina diniy guruqlar ro’yxatga olish talablariга javob bera olmaydi, chunki ularga qo’yiladigan talablardan biri 13 viloyatning kamida sakkiztasida doimiy vakolatxonga ega bo’lishdir. 2014-yilda qabul qilingan senzura haqidagi batafsил yangi farmon e’tiqodni “buzadigan” yoki shaxslarni dinini o’zgartirishga rag’batlantiruvchi materiallarni taqiqlaydi.

Din ishlari bo’yicha kengash (DIK) diniy materiallarni senzura qiladi. Shuningdek, hukumatning qo’lida taqiqlangan xalqaro, xususan, inson huquqlari va diniy erkinlik bo’yicha veb-saytlarning keng ro’yxati bor. Din haqidagi qonun ruxsat berilmagan diniy materiallarni import qilish, saqlash, ishlab chiqarish va tarqatishni taqiqlaydi. Xabar qilinishicha, turli diniy jamoa larning a’zolari politsiya reydlari da vomida musodaranan qo’rqib, muqaddas matnlarini yo’q qiladi. Bir DIK rasmiyining bergen bayonotiga ko’ra, o’zbek qonunchiligi diniy matnlarni faqat ro’yxatdan o’tgan diniy guruqlar binolari ichida o’qish imkonini beradi.

O’zbekiston hukumati faol ravishda rasman belgilangan diniy me’yorlarga mos bo’limgan shaxslar, guruqlar, masjidlar va boshqa ibodat uylariga yoki ekstremistik siyosiy dasturlar bilan aloqada gumon qilinganlarga bosim o’tkazadi. O’zbekistonda din nomidan zo’ravonlik qiluvchi guruhlardan xavfsizlikka tahdid mavjud bo’lgan bir paytda hukumat ekstremizmga qarshi mavhum qonunlarni tinch din tarafdrorlari va hech qanday haqiqiy tahdid solmaydigan boshqa insonlarga qarshi ishlatdi. Bu kampaniya jumladan Andijon shahrida 2005-yil may oyidagi noroziliklar bilan bog’liq taqiqlangan “Akromiya” musulmonlar guruhiга a’zolik ayblovi bilan suqlangan 23 nafar biznesmenlarga qarshi qaratilgan. O’sha asosan tinch bo’lgan namoyishga javob tariqasida, O’zbek davlat armiyasi 1000 gacha fuqarolarni o’ldirgan. Ushbu namoyishlarda qatnashganlikda ayblangan 230 nafar inson hali ham qamoqda; 11 nafar mahbus qamoqda halok bo’lgan, jumladan ruhiy peshvosi bo’lgan Akram Yuldashev. 2016 yil yanvar oyida, Akram Yuldashevning 17 yillik qamoq jazosidan ozod bolishiga bir oy qolganda, O’zbek rasmiylari dunyoga va Yuldashevning oilasiga u 2010 yilda tuberkulyozdan o’lgan deb aytishdi. O’zbekiston hukumati shuningdek Andijon fojiasidan keyin qochib ketgan yuzlab o’zbeklarni qaytarish uchun boshqa mamlakatlarga bosim o’tkazmoqda, va ularning qarindoshlariga chet

elda yashovchi oila a'zolari bilan birlashish uchun O'zbekiston hududidan chiqishni taqilamoqda.

2016 yil sentabr oyida O'zbekistonning Sovetlardan keyingi birinchi va yagona prezidenti Islom Karimov vafot etdi. Uch oydan so'ng, 2003 yildan beri bosh vazir lavozimida ishlab kelgan Shavkat Mirziyoyev oshkoraliq yo'q deb tanqid qilingan prezident saylovlari davomida saylandi. Xabar berilishicha, Mirziyoyev huddi shuncha vaqt davlat xizmatida bo'lган moliya vaziri Rustam Azimov va havfsizlik hizmatlari boshlig'i Rustam Inoyatov bilan birgalikda triumvirlik a'zolaridir.

## **2016-2017-yillardagi diniy erkinlik sharoitlari**

***Ekstremizmga qarshi qonunlarni qo'llash:*** O'zbekiston hukumati diniy amaliyot ustidan yoki ularning gumonlangan diniy mansubligi uchun davlat na zoratini rad etgan shaxslarni hibsga olish va 20 yil muddatgacha bo'lган muddatlarga ozodlikdan mahrum etishning o'n yillik siyosatini davom ettirdi. Ularning ko'pchiligidagi adolatli sudga ruxsat etilmadi va ular qiyonoqqa solinmoqda; ba'zilar i ruhiy kasalxonalarda ushlab turilibdi. Mustaqil Inson Huquq Himoyachilar Tashabbus Guruhi (MIHHTG) ma'lumotiga ko'ra, 2015 yil ohirida 12800 diniy mahbuslar bo'lган, ko'pchiligi qiyonoqlarga solinish havfida; xabar berilishicha, 84 diniy mahbus yakka cheklashda qolgan.

O'zbekiston hukumati rasmiy kanallardan tashqarida gi diniy faoliyatga chuqr shubha bilan qarashda davom etmoqda va diniy amaliyotni davlat na zoratiga topshirishmaganlarga qarshi turli repressiv vositalarini ishlatmoqda, jumladan jarima, jazo qidiruvlari, hibsga olish, qiyonoqlar, uzoq vaqt ozodlikdan mahrum qilish va oila a'zolarini qo'rkitish. 2016 yil aprel oyida Jinoyat Kodeksining "ekstremistik materiallar"ga egalik qilish yoki "ekstremistik tashkilotlar"da ishtirok etish kabi jinoyatlarini tartibga soluvchi 244-1 va 244-2 moddalarining mazmuni kengaytirilidi va maksimal jazo 5 yildan 8 yilgacha qamoq jazosi bo'lган holatdan 15 yildan 20 yilgacha ko'tarildi. Vijdon masalasida hibsga olingen uzoq muddatli mahbuslarning ko'pchiligidagi adolatli jarayon rad qilinadi va g'ayriinsoniy saqlash sharoitlarda ushlanadi. O'zbekistondagi Mustaqil Inson Huquq Himoyachilar Tashabbus Guruhi (MIHHTG) ko'ra, 2016 yilning ohirida O'zbekistonning haddan tashqari keng din yoki ekstremizm haqidagi qonunlarini buzganlik uchun qamoqqa 13.500 shaxs bor edi.

***Islomiy Ekstremizmda O'zboshimchalik Ayblovlar:*** Bir necha yuz o'zbeklar Suriya va Iroqda kurashayotgan deb hisoblanganda, O'zbekiston hukumatining terrorizm masalasi ida chinakam tashvishlari bor. Shunday bo'lsa-da, O'zbekiston hukumati tomonidan qiyonoq va majburlashdan keng foydalanish, diniy ayblovlardan siyosiy va iqtisodiy mojarolarni hal qilishdan foydalanish va tegishlilik asosida ayb qo'yish sababli qonuniy ta'qibni o'zboshimchalik yoki uydurma bo'lган ayblovlardan ajratish qiyin. Masalan, 2016 yil fevral oyida, O'zbekiston fuqarosi va Arman nasroniy baliq fermeri Arama is Avakian, qo'zg'olon chiqarish va ISHIDga qo'shilish uchun Suriyaga qochishni rejalashtirish ayblovlari bilan to'rt o'zbeklar bilan birgalikda yetti yil qamoq jazosiga hukm qilindi. Birinchidan Avakian ko'rsatmalarini qiyonoq orqali olingen deb ko'rindi – Avakianning oyog'i hibs davomida singan – undan tashqari asosiy guvoh va birgalikda sudlanuvchi Furqat Jo'raev keyinchalik asosiy detallarning ko'p qismini o'ylab topganini tan oldi.

Avakianning oilasining aytishicha u o'zining baliq xo'jaligini mahalliy administratororga taslim qilishga rad qilganidan keyin nishonga aylandi.

2016 yilning birinchi yarmida, Radio Ozodlik, Radio Ozod Evropa / Ozodlik radios i (RFE / RL) o'zbek xizmati, chet elda, asosan Rossiya va shuningdek AQShda o'qigan yoki ishlagan o'nlab yigitlar hibsga olindi, ko'pinchha faqat bir yoki ikki gumondor shaxslar bilan bo'lган bog'liqligi tufayli. 2016 yil yanvarida ISHID bilan bogliqlikda gumonlanib hibsga olingen So'h viloyatidan bo'lган 20 yosh yigitlarning 12tasi 2 oydan keyin qo'yib yuborildi. Ularning hibsga olish uchun zohiriylar sabab, ular ke yinchalik noaniq sabablarga ko'ra Yaqin Sharqqa ketgan ikki kishi bilan Rossiyada birgalikda ishlagan edi. 2017 yil yanvar oyida Umar Badalov Rossiyada og'ir uskuna lar operatori sifatida ishlab kelganidan so'ng Toshkent aeroportida hibsga olingen edi. Badalov ilgari islomiy ekstremizmda ayblangan edi va 17-yillik hukmning to'rt yillik qismini o'tab 2003 yilda amnistiya qilingan edi; MIHHTG xabar berishicha hukumat uni 2015 yil sentabr oyida masjid tashqarisida bo'lган portlashda ayplashni rejalashtirilgan, u xotini bilan o'sha paytda masjiddan 35 kilometr uzoqlikdagi tug'ruqxonada bo'lган.

Terrorizmdagi ayblovlar ortiqcha diniy deb hisoblangan insonlarga qarshi "profilaktik" chora sifatida ishlatiladi deb ishoniladi. Masalan, Forum 18 News Service xabar berishicha ikki amakivachchalar, Jonibek Turdiboyev va Mansurkhon Akhmedov 2016 yil may oyida ISHID va'zlar bo'lган kompakt diskka egalik qilgani uchun besh yil qamoq jazosiga mahkum qilingan; ularning oila a'zolarining aytishicha u musiqa diskini bo'lган va ular ortiqcha diniy bo'lganliklari uchun ta'qib qilingan.

***Chet Elda Yashovchilar va Ularning Oila A'zolariga Nisbatan Ta'qib.*** Ko'p miqdordagi o'zbek fuqarolari chet elda, jumladan 1,7 million fuqaro Rossiyada yashaydi, asosan moliyaviy sabablarga ko'ra va shuningdek diniy va siyosiy ta'qibdan qochish uchun. Hukumat chet elda gi yashovchilar qo'poruvchilik va diniy ekstremizmga moyil bo'lган deb hisoblaydi va oila a'zolarini yaqindan nazarat qiladi va bezovta qiladi. Jumladan, davlatni diniy sabablarga ko'ra tark etgan insonlarning oila a'zolari davlatdan tashqarida yashovchi qarindoshlarini qaytishga majburlash yoki u yerdagi faoliyatlarini to'htatish maqsadida qattiq ta'qib qilindi. Ozodlik Radiosi xabar berishicha, jazolar oila a'zolarining uylarini tintuv qilishdan boshlab so'roq, hibsga olish va jamoat oldida uyaltirishgacha boradi. Shuningdek, xabar berilishicha O'zbekiston hukumati yuzlab fuqarolari, jumladan siyosiy va diniy dissidentlarga qarshi bir necha xalqaro hibsga olish va ekstatitsiya so'rovlari – INTERPOL "qizil hatlar"ni jo'natgan.

***Musulmon diniy faoliyat bilan bog'liq cheklovlar:*** O'zbekistonda davlat ruxsatisiz mustaqil diniy faoliyat qattiq jazolanaadi. Forum 18 xabar berishicha, 2016 yil iyul oyida shaxsi aniqlanmagan to'rt So'fiy musulmonlar uyida diniy yig'ilishlar uyushtiriganlik uchun to'rt yil qamoq jazosiga hukm qilingan. O'sha oyda, ikki norasmiy Qur'on o'qituvchisi hibsga olingen; biriga jarima solingan va qo'yib yuborilgan, ikkinchisiga ayblovlar qo'yilishi mumkin. Diniylikni kamaytirish uchun davlat tomonidan ruxsat berilgan Islom dinining umumiyligi amaliyoti turli va aytib bo'lmaydigan yo'lida chegaralanib kelmoqda. Ozodlik Radiosi xabar berishicha, hukumat Ramazон oyi davomida jamoatga ommaviy iftor berishni taqiqlagan. Bolalar masjidlarga kira olmasliklari uchun masjidlarda bir necha soqchi postlari qo'yilgan, va o'zbek maktab o'quvchilari yoz ta'tili davomida masjidga kirishlari taqiqlangan. Mustaqil Fergana News Agency xabar berishicha, O'zbek hukumati haj maqsadida Makkaga borish uchun

Saudiya Arabistonidan ajratilgan ziyoratchilar kvotasining beshdan bir qismiga borishiga ruxsat beradi.

**“Taqiqlangan” Islomiy Materiallar:** O’zbekiston hukumati doimiy ravishda safar qiluvchilarning elektronik vositalarini tekshiradi; “taqiqlangan” materiallarga ega bo’lgan insonlar joyida hibsga olinib qamoq jazosiga mahkum qilinishi mumkin. Ozodlik Radiosi xabar berishicha, kamida ikki Qozog’iston fuqarosi 2016 yil davomida bunday ayblovlar bilan hibsga olingan; biri amnistiya qilingan, ikkinchisi esa, Akmal Rasulov, iyul oyida mobil telefonidagi va’zlar uchun 5 yillik qamoq jazosiga hukm qilingan. 2010 yilda etnik mojarolardan so’ng Qирг’изистонning O’sh shaxriga qochgan va boshqa davlat fuqaroligini olgan etnik o’zbeklar ham shunday sabablar bilan hibsga olingan. 2016 yil Yanvar va May oylarida Rossiya fuqarolari Bakhtiyor Khudoiberdiev va Zukhriddin Abduraimzhonov hibsga olindi hamda 6 va 3 yil jazo olishdi; ular chegaradan Qирг’изистонга o’tayotganda hibsga olinishdi.

**Qamoqda Saqlashining G’ayriinsoniy Sharhlari:** O’zbekiston qamoq va mehnat lagerlarida din va vijdon mahbuslari doimiy ravishda jismoniy va psixologik azob, to’yib ovqat yemaslik, past darajadagi sanitariya va sharoitlarning o’zboshimchalik bilan o’zgarishlariga duchor bo’ladi. Xabar qilinishicha, 2016 yil fevral oyida uchta uzoq muddat qamoqda bo’lgan mahbuslar – Ikromzhon Nizamov, Doston Abdurakhmanov, va Shakhob Makhkamov vafot etishgan, biri tuberkulyozdan va qolgan ikkitasi qattiq qiyonoqlardan keyin. Mahbuslar qamoq jazolarining muddati tugashi yaqinlashgach, ushbu muddatlar ko’pincha uzaytirildi yoki yangi ayblovlar qo’yiladi; MIHHTG baholashicha davlatdagi diniy va siyosiy mahbuslarning 4000tasi shunday yo’l bilan qamoq muddatlari uzaytirilgan. 2016 yil agvustda uydai islam haqida darslar o’tkazganlik uchun qamoqqa olingan va 2010 yildan beri qamoqda singlisi Mehriniso bilan saqlanayotgan Zulhumor Hamdamovaning qamoq muddati uch yilga uzaytirildi. 2016 yil noyabr oyida Mehriniso noma’lum ayblovlar bo’yicha sudga tortilishi kerak edi. 2016 yil yanvar oyida Turk teologi Said Nursi matnlarini o’qiganlik uchun qamoq jazosiga tortilgan 100 musulmonlarning biri Kamol Odilovning qamoq muddati lagerda mushtlashuv boshlagani uchun uzaytirildi – qamoqdan ozod qilinishiga atigi bir necha kun qolganda.

**Nasroniylargacha Zolimlik:** O’zbekiston hukumati eng qattiq jazolarni ko’pchilik bo’lgan musulmonlar tomonidan diniy e’tiqod ifodasi uchun saqlab qo’yadi. Ma’lum bo’lgan yagona nasroniy vijdon mahbusi baptist Tohar Haydarov 2016 yil noyabr oyida o’n yillik lager jazosining olti yilini o’tkazib qo’yib yuborildi. Missionerlik faoliyatida gumon qilingan nasroniy mazhab a’zolari ko’pincha faqatgina uylarida diniy matnlarni saqlaganlik uchun jarimaga solinadi, hibsga olinadi va uy qidiruvlariga duchor etiladi. Forum 18 2016 yil davomida o’nlab bunday voqealar haqida xabar beradi, asosan Iyegova guvohlari, baptistlar va ettinchikun adventistlar duchor bo’ladi. Diniy zo’ravonlikning boshqa holatlari kabi, O’zbekiston hukumati jazolarni tanlashda injiq ko’rinadi: nasroniy inson 2016 yil mart oyida militsiya uyida diniy adabiyot uchun tintuv qilganidan keyin “bezorilik” uchun 15 kunga qamoqqa olindi; etnik koreys baptist Stanislav Kim diniy kitoblarga egalik qilganlik uchun ikki yil uy qamog’iga mahkum qilindi; va 2017 yil yanvar oyida adventistning avtomobili “ta’qiqlangan” kitob topilgani uchun jarima o’rniga tortib olingan, ammo ushbu kitob avvalgi yili hukumat tomonidan tasdiqlangan edi.

## AQSh siyosati

O'zbekiston Markaziy Osiyoning aholisini eng ko'p mamlakati bo'lib, Markaziy Osiyodagi qolgan to'rt sobiq Sovet respublikasi va Afg'oniston bilan chegaradoshdir. Bundan tashqari, O'zbekiston Sovet davridadagi Rossiya bilan bog'lovchi mintaqaviy temir yo'l tizimining markazida turadi. Shu sababli, so'nggi yillarda AQShning O'zbekistondagi siyosati Afg'onistondagi xalqaro kuchlarni ta'minlash yo'li bo'lgan Shimoliy Taqsimlash Tarmog'ida (ShTT) ushbu mamlakatning egallagan muhim o'rniqa qaratilgan. O'zbekiston ShTT tugunidir, ammo ba'zan hamkorlik qilmaydi. Inson huquqlarini poymol qilinishi sababli so'nggi o'n yil davomida ba'zan yordam berilmayotganligiga qaramay, O'zbekiston va AQSh orasida narkotik moddalar va terrorizmga qarshi kurash va chegara havfsizligi kabu muhim hamkorlik sohalari mavjud.

AQSh 2009-yilda har bir Markaziy Osiyo davlati bilan Yillik ikki tomonlama maslahatlashuvlar (YITM) o'tkazdi. Eng so'nggi AQSh-O'zbekiston YITM 2016-yil yanvarida Vashington shahrida amalga oshirildi. AQSh delegatsiyasiga Janubiy va Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha davlat kotibi yordamchisi Nisha Desai Biswal boshchilik qildi, O'zbekiston delegatsiyasiga Abdulaziz Komilov boshchilik qildi. Muhokama etilgan inson huquqlari masalalari bir necha diniy va boshqa mahbuslarning holati, fuqarolik jamiyatni va ommaviy axborot vositalari, mehnat huquqlari va diniy erkinlik bo'yicha cheklovlarini o'z ichiga oлган, jumladan diniy guruhlarni ro'yxatga olishdagi o'gir talablar. 2016 yil aprel oyida Markaziy Osiyo bo'yicha Davlat kotibi yordamchisining o'rribbosari Daniel Rosenblum diniy ayblovlari bilan qamalgan Aramais Avakian va Furkat Djuraevning oilalari bilan Toshkent shahrida uchrashdi.

2016 yil fevral oyida AQSh Adliya departamenti olamdan o'tgan O'zbekiston prezidentining qizi Gulnora Karimova ga G'arbdagi telekommunikatsiya operatorlari tomonidan to'langan poralarni tergov qilish bilan bog'liq bo'lgan G'arbdagi bank hisob raqamlaridagi \$ 800 milliondan ortiq mablag'ni muzlatib qo'ydi. Ushbu mablag'lar 2010 yilda AQSh Adliya Vazirligi tomonidan korruptsiya ga qarshi Kleptocracy Asset Recovery Tashabbusi dasturi doirasida musodara qilindi. Ba'zilar ushbu mablag'larning O'zbekiston davlatiga qaytarilishi inson huquqlari majburiyatlarini bajarish bilan bog'liq bo'lishi kerak deyishmoqda.

2016 yil avgust oyida Davlat Departamenti bir qancha ko'p tomonlama masalalar, jumladan asosiy erkinliklarga hurmat yuzasidan muhokamalar uchun besh Markaziy Osiyo davlatlari va AQSh tashqi ishlari vazirlarini to'plash maqsadida yangi C5 + 1 diplomatik formatda ikkinchi yig'ilishni o'tkazdi. Yig'ilishda qabul qilingan qo'shma bayonotida barcha besh vazir, shuningdek o'sha davrda gi Davlat kotibi Jon Kerri tomonidan fuqarolik huquqlari va demokratik erkinliklar va boshqa masalalarda yanada olg'a yurishga va'da berildi.

Davlat Departamenti 2006-yildan beri O'zbekistonni uning tizimli, ashaddiy, davom etayotgan diniy erkinlik buzilishlari sababli "Alovida tashvish uygotadigan mamlakat" yoki ATUM deb belgilab keladi. ATUM belgilovi so'nggi marta 2016-yil oktabr oyida yangilandi, lekin Davlat departamenti buning oqibatida har qanday harakatdan noma'lum vaqt mobaynida voz kechish siyosatini davom ettirdi. Davlat departamenti ma'lum qilishicha, IRFA-ning 407-bo'limiga ko'ra, bunday voz kechish "Qo'shma Shtatlarning muhim milily manfaatlari"ga mos keladi.